

Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**THE TREATISES OF RAḌĪ AL-DĪN ḤASAN IBN MUḤAMMAD AL-ṢAGHĀNĪ ON ARABIC LINGUISTICS****Zukhra A. Erimmatova**

Assistant

Department of Arabic Language Translation Theory and Practice

Uzbekistan State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE**Key words:** Arabic linguistics, alphabetical method, treatise, morphological pattern, lexicon, al-Ṣaghānī, Mawarannahr.**Received:** 08.05.26**Accepted:** 09.05.26**Published:** 10.05.26**Abstract:** This article provides information about the prominent Arab linguist Raḍī al-Dīn Ḥasan ibn Muḥammad al-Ṣaghānī, who is well known for his lexicographical works, as well as his scholarly legacy. In his treatises devoted to specific morphological patterns, al-Ṣaghānī systematically compiled rare and morphologically distinctive lexical units of the Arabic language. The scholar holds an important position not only as a linguist but also as a hadith scholar who authored valuable works in this field. While his works on hadith studies have begun to be examined by Uzbek researchers, his linguistic works remain insufficiently studied. Therefore, this article represents one of the initial attempts to explore this aspect of his scholarship.**ROZIYUDDIN HASAN IBN MUHAMMAD SOG'ONIYNING ARAB TILSHUNOSLIGIGA OID RISOLALARI****Zuxra A. Erimmatova**

Assistent

Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasida

O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti

zuhraerimmatova@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA**Kalit so'zlar:** arab tilshunosligi, alifbo uslubi, risola, morfologik vazn, lug'at, Sog'oni, Movarounnahr.**Annotatsiya:** Arab tilshunosligida o'zining lug'atlari bilan tanilgan tilshunos Roziyuddin Hasan ibn Muhammad Sog'oni haqida va uning asarlari tog'risida ma'lumot

berilgan. Sog'oniy ma'lum siyg'aga xoslangan risolalarida arab tilidagi kam uchraydigan yoki morfologik jihatdan o'ziga xos bo'lgan leksik birliklarni alohida tizimlab tuzib chiqqan. Alloma nafaqat tilshunos balki, hadisshunos sifatida ham alohida qiymatga ega asarlar muallifidir. Allomani hadisga oida asarlari o'zbek tadqiqotchilari tarafidan o'rganila boshlangan, ammo tilshunoslikka oid asarlari borasida izlanishlar kam bo'lgani bois bu maqola shu yo'nalishda olib borilgan dastlabki urinishlardan hisoblanadi.

ТРАКТАТЫ РАЗИЮДДИНА ХАСАНА ИБН МУХАММАДА АС-САГАНИ ПО АРАБСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Зухра А. Эримматова

Ассистент

Кафедры теории и практики перевода арабского языка

Узбекский государственный университет мировых языков

zuhraerimmatova@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: арабская лингвистика, алфавитный метод, трактат, морфологическая модель, словарь, ас-Соғани, Мавераннахр.

Аннотация: В статье представлена информация о выдающемся арабском лингвисте Ризийуддине Хасане ибн Мухаммаде ас-Соғани, известном своими лексикографическими трудами, а также о его научном наследии. В своих специализированных трактатах, посвящённых определённым морфологическим моделям, ас-Соғани систематизировал редкие и морфологически специфические лексические единицы арабского языка. Учёный представляет собой значимую фигуру не только в области лингвистики, но и как знаток хадисов, оставивший ценные труды в данной сфере. Его хадисоведческие работы уже начали изучаться узбекскими исследователями, однако его лингвистическое наследие остаётся недостаточно исследованным. В связи с этим данная статья является одной из первых попыток научного анализа в данном направлении.

Kirish. Arab tili tilshunosligi arablar bilan bir qatorda ajam diyorlaridagi olimlarni ham bu sohada ko'plab turli xil ilmiy izlanishlar olib borishga undagan. Arablar va ajamliklar tilning

sistem-struktur jihatidan shuningdek, leksik birliklariga alohida e'tibor qaratishgan. Leksik birliklarni turli xil aspektlarda o'rganib, tildagi sinonim, antonim so'zlar, lug'atlar, risolalar tuzishgan. Sog'oniy arab tilshunosligiga o'z hissasini qo'shgan ajamliklardan hisoblanib, uning bu sohada amalga oshirgan ishlari salmoqlidir. U to'liq bir lug'at, o'zidan avval talif etilgan lug'atlarga qo'shimcha va kiritma sifatidagi, kichik hajmli tematik risolalar hamda arab tili siyg'alaridan xos bittasiga qaratilgan risolalar muallifidir. Bitta siyg'ada keldigan so'zlarni o'zida jamlagan risolalariga "افعال", "فعال", "يفعول", "انفعال", "فَعْلَان" ushbu asarlardir.

Adabiyotlar tahlili. Alloma Roziyuddin Hasan ibn Muhammadning oilasi aslida Movarounnahrda qadimiy shahar — Sog'oniyondan kelib chiqqan. Uning ajdodlaridan biri Pokistonda joylashgan Lahur shahriga ko'chib o'tgan (Ali Qadri, 1966, p. 67).

Vaxsh daryosining (Surxob deb ham ataladi) g'arb tomonida va janubdan Amudaryo bilan chegaralangan keng hudud Chag'oniyon deb atalgan bo'lib, arablar bu hududni Sog'oniyon deb ataganlar. Tarixshunos olim al-Muqaddasiy bu hududda 16000 ta shahar borligini taxmin qilgan. Uning asosiy shahri ham shu nom bilan atalgan. Shahar tog' yonbag'rida oqar suvlar va yoqimli iqlimga ega hududda joylashganligi, unda yopiq bozorlar va chiroyli masjidlar mavjud bo'lganligi haqida xabar berib o'tgan (Ali Qadri, 1966, p. 67).

Bu joyni Qutayba ibn Muslim hijriy 86-yilda (milodiy 705-yil) fath qilgan. Keyinchalik hijriy 416-yilda (milodiy 1025-yil) Mahmud G'aznaviy (1014–1030) bu hududni egallagan. VII asrda esa bu hudud Chig'atoy imperiyasi tarkibiga kirgan. Shahar ehtimol VIII asrda yo'q bo'lib ketgan. Mahmud ibn Amir Valining ma'lumotiga ko'ra, hozirgi Deh-i Nav (Denov) shahri (hozirgi O'zbekiston hududida) Sog'oniyon bilan aynan bir joy hisoblanadi (Ali Qadri, 1966, p. 67).

Bu ko'chib o'tishning aniq sanasi ma'lum emas. Ammo bu voqea Lahurni hijriy 405-yilda (milodiy 1014-yil) va Sog'oniyonni hijriy 416-yilda (milodiy 1025-yil) zabt etgan Sulton Mahmud davrida sodir bo'lgan. Bu davrda olimlarning ko'chib yurishi keng tarqalgan edi. Shuning uchun Sog'oniyning katta bobosi 1025-yildan keyin Lahurga ko'chib o'tgan deb taxmin qilinadi.

Keyinchalik uning oilasi Lahurni doimiy yashash joyi qilib olgan. Ishonchli manbalarga ko'ra, Sog'oniy aynan shu yerda, hijriy 577-yil Safar oyining 10-kuni (milodiy 1181-yil 25-iyun) Xusrav Malik G'aznaviy (1160–1186) hukmronligi davrida tug'ilgan (Ali Qadri, 1966, p.67). Uning Badaun shahrida tug'ilgani haqidagi rivoyat ishonchli hisoblanmaydi (Görmez, 2008, 487–489 p).

Imom Sog'oniy turli xil mavzularda asarlar yozgan. Uning tilshunoslikka oid kitoblari "Al-'Ubāb al-Zākhira wa al-Lubāb al-Fākhira" (العباب الزاخرة واللباب الفاخرة) bu asar 20 jilddan iborat eng katta va ahamiyatli lug'atlardan hisoblanadi. "at-Takmila wa adh-Dhayl wa aş-Şila" (التكملة والذيل والصلة) allomaning ushbu asari 6 bobdan iborat. "ash-Shawārid fī al-Lughā" (الشوارد في اللغة) (Tilda kam uchraydigan iboralar) bu asari 4 qismga ajratilgan. "Kitāb al-If'āl" (كتاب الافعال) imom

Sag'oniylar bu asarida mazkur vaznda keladigan so'zlarni alifbo tartibida keltirib o'tgan, "Kitāb al-Ifti'āl" (كتاب الافتعال), "Kitāb al-Infi'āl" (كتاب الانفعال), "Kitāb mā banat-hu al-'Arab 'alā fi 'āl" (كتاب (تقعة الصديان فيما جاء على الفعلان) , "Naq'at aṣ-Ṣadyān fīmā jā' a 'alā al-fa'alān" (ما بنته العرب على فعال), "Kitāb fī asmā' al-asad" (كتاب في أسماء الأسد) asarda arslonlarning 300 dan ortiq nomi keltirilgan. "Kitāb fī asmā' adh-dhi'b" (كتاب في أسماء الذئب) arab tilida bo'rining nomlariga bag'ishlangan bo'lib, 70 ga yaqin nomi keltirilgan. "Asmā' al-ghādāt fī asmā' al-'ādāt" (أسماء الغادات في أسماء العادات), "Kitāb al-aḍḍād" (كتاب الأضداد) arab tilidagi zid ma'noli so'zlar haqidagi asardir. "Majma' al-Bahrayn" (مجمع البحرين), "Kitāb khulq al-insān" (كتاب خلق الإنسان) inson hulq-atvori haqida kitob, "Mā tafarrada bihi ba'd a'immat al-lugha" (ما تفرد به بعض أئمة اللغة) (Ba'zi tilshunoslarning mustaqil qilgan narsalar), "Kitāb fī at-taṣnīf" (كتاب في التصنيف) tushlash haqida kitob, "Kitāb al-'arūḍ" (كتاب (العروض) aruz haqida kitob, "Ta'zīz bayt al-Ḥarīrī" (تعزير بيت الحريري), "Kitāb al-maf'ūl" (كتاب (المفعول)) arab tili grammatikasidagi mazkur vazndagi so'zlar haqida bitilgan, "Kitāb yaf'ūl" (كتاب (يفعول) kabi asarlari bor.

Bibliografik manbalarda ham Sog'oniylarning asarlari haqida ma'lumot berilgan. Jumladan, Ismoil Pashsha Bag'dodiy o'zining "Hadiyyat al-'Ārifīn" (هدية العارفين) asarida olimning "Kitāb al-yaf'ūl" va "al-'Āb al-zāxir" kabi asarlarini sanab o'tadi (Bag'dodiy, 1951, p. 281). Bu ma'lumotlar Sog'oniylarning arab tilshunosligidagi faoliyati keng qamrovli bo'lganini ko'rsatadi. Shuningdek, arab adabiy merosini o'rgangan g'arb tadqiqotchilari ham Sog'oniylarning ilmiy merosiga e'tibor qaratgan. Masalan, nemis sharqshunosi Karl Brockelmann o'zining mashhur bibliografik asari "Geschichte der arabischen Litteratur" da Sog'oniylarning lug'atshunoslikka oid asarlarini tilga oladi (Brockelmann, 1898, p. 320). Brockelmann Sog'oniylarning asarlarini arab tilshunosligi rivojining muhim bosqichi sifatida baholaydi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, "Kitāb al-yaf'ūl" arab tilidagi muayyan morfologik vazn asosida tuzilgan, alifbo tartibida joylashtirilgan tilshunoslikka oid asar hisoblanadi. Asarda yaf'ūl vaznida kelgan so'zlar yig'ilgan bo'lib, ular semantik jihatdan izohlangan. Bu uslub arab lug'atshunosligida kam uchraydigan, lekin morfologik tizimni o'rganishda muhim bo'lgan metod hisoblanadi. Allomaning boshqa asarlaridan farqli o'laroq zamonaviy tilshunos tadqiqotchilar tarafidan hali ushbu asar o'rganilmagan.

Asarning qo'lyozma shaklidagi bir nusxasi daru-l-kutub al-Misriyyada 412-raqamda, boshqasi Shahid Ali majmuasida saqlanmoqda. Bu kitobni tunislik ustoz Hasan Husniy Abdul Vahhob 1924-yilda tahqiq qilgan (Hijāzī, 1983, p. 22). Biroq bu nashr amalga oshirilgan sharoit hamda qo'llangan nashr uslubi kitobdan kutilgan ilmiy natijaning to'liq ro'yobga chiqishiga imkon bermagan. Shu sababli asar keng tarqalmagan va uni topish ancha mushkul bo'lib qolgan (Sāmarrā'ī, 1960, p.12).

Keyinchalik Ibrohim Samirroiy Basrada 1960-yilda qayta tahqiq qilgan.

Sogʻoniy asarni tuzishda arab tilidagi klassik sheʼriyat, hadis va boshqa matnlardan misollar keltiradi. Bu esa lugʻat birliklarining real matnlar asosida tushuntirilganini koʻrsatadi. Shu jihatdan asar nafaqat lugʻat, balki arab tilining morfologik tizimini oʻrganishda ham muhim manba hisoblanadi. Bundan tashqari, “Kitāb al-Yafʻūl” arab tilidagi kam qoʻllaniladigan soʻzlarni saqlab qolishda ham muhim rol oʻynagan. Koʻplab leksik birliklar aynan shu kabi lugʻat asarlari orqali keyingi avlodlarga yetib kelgan.

Mazkur asar arab tilshunosligiga oid kitoblardan biri boʻlib, unda boshqa asarlarda uchramaydigan oʻziga xos lingvistik material jamlangan. U bizgacha yetib kelgan tilshunoslik risolalarining alohida turiga mansubdir. Bunday risolalar haqida al-Aʼshmaʼiy, Abu Zayd al-Anʼsoriy, Ibn as-Sikkīt va boshqa olimlardan ham maʼlumotlar rivoyat qilingan. Sogʻoniyning “Kitāb Yafʻūl” asari ham qadimgi olimlar bilgan va unga ishora qilgan ana shunday ilmiy asarlardan biridir. Bu olimlar qatorida Jaloliddin as-Suyutiy ham bor. U oʻzining “al-Muzhir” asarida “yafʻūl” vaznida kelgan masdarlar haqida soʻz yuritir ekan, shu kitobni tilga oladi va uni ushbu vaznga oid manbalardan biri sifatida qayd etadi. Shuningdek, az-Zabidiy ham oʻzining “Tāj al-ʻArūs” asarida mazkur kitobni eslatib oʻtgan.

Doktor Ibrohim ustoz Hasan haqida shunday fikrlarni bildirgan: “Muhtaram muhaqqiq olim kitob matnining koʻp joylariga sharh va izohlar qoʻshib, nashrini foydali hamda ilmiy jihatdan muhim holga keltirgan. Biroq ushbu nashrning kamyobligi sababli men asarning asl nusxadan koʻchirilgan bir qoʻlyozma nusxasini qoʻlga kiritdim. Soʻngra bu lingvistik materialni yana qayta nashr qilish zarur deb topdim. Bunda matnni imkon qadar toʻgʻrilab, ayrim kamchiliklarni bartaraf etishga harakat qildim. Chunki baʼzi jihatlar muhtaram muhaqqiq olim nazaridan chetda qolgan edi” (Sāmarrāʼī, 1960, p. 13).

Shuni ham alohida taʼkidlash joizki, “yafʻūl” vazni koʻpincha hayvonlarning turli sinflaridagi erkaklarini ifodalovchi nomlarda uchraydi.

Doktor Ibrohim Samirroiy “yafʻūl” vaznida kelgan hayvonlarning erkak jinsini bildiruvchi soʻzlardan ayrimlarini misol sifatida keltiradi:

اليأمور (al-yaʼmūr) — tuya (ibil)ning erkagi (al-Qomus).

اليحمور (al-yaḥmūr) — yovvoyi eshak (as-Siḥāḥ).

اليعفرور (al-yaʼfūr) — kiyik turidan boʻlgan hayvon; yaʼni kiyikning yosh erkagi (Kitāb Yafʻūl). Shuningdek, u tez-tez sakrab yurishi sababli shunday nomlangan kiyik bolasi ham deyiladi (al-Mukhaṣṣaṣ).

اليعقوب (al-yaʼqūb) — kaklikning erkagi (Lisān al-ʻArab).

اليرحوم (al-yarḥūm) — raham (urgʻochi qush)ning erkagi (Lisān al-ʻArab).

اليحبور (al-yaḥbūr) — hubor qushining erkagi (Lisān al-ʻArab; Tāj al-ʻArūs).

اليعمور (al-yaʼmūr) — echki bolasi (uloq) (al-Mukhaṣṣaṣ).

اليعسوب (al-ya‘ sūb) — asalarilar podasining boshlig‘i (asalari podshohi) (Kitāb Yaf‘ūl).

Xulosa qilib aytganda, arab tilshunosligi tarixida muhim o‘rin egallagan olimlardan biridir. Uning “كتاب اليفعول” asari arab tilidagi muayyan morfologik vaznga oid so‘zlarni jamlash orqali leksikografiya rivojiga katta hissa qo‘shgan. Asar arab tilining morfologik va semantik tizimini o‘rganishda muhim manba bo‘lib, arab tilshunosligi tarixini tadqiq etishda katta ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Madad Ali Qadri (1966). Life and works of al-Imam al-Saghani al-Lahori. Sind university research journal. Haydarabad. (in English)
2. Author: Ismā‘īl Pasha al-Baghdādī (1951). Edited on the basis of the author’s manuscript and revised by Muallim Rif‘at Bilge and Mahmud Kemal İnal. “The Gift of the Gnostics”: The Names of the Authors and the Works of the Compilers. Hadiyyat al-‘Ārifin. - Istanbul: Milli Eđitim Basımevi. – P. 518 (in Arabic).
3. Mehmet Görmez (2008). “Şaghānī,” Türkiye Diyanet Vakfı İslām Ansiklopedisi (TDVIA), vol. 35. – Istanbul: Türkiye Diyanet Vakfı Yayınları (in Turkish).
4. Carl Brockelmann (1898), “History of Arabic Literature” vol. 1 (Weimar: E. Felber,). (443-444; Suppl., I, 613-615) Geschichte der arabischen Litteratur. – Weimar: Emil Felber. – P 596 (in German)
5. Şaghānī, al-Ḥasan ibn Muḥammad ibn al-Ḥasan (1983). Edited by Muşţafā Ḥijāzī; revised by Muḥammad Ḥasan ‘Abd al-Ghaffār. “The Book of Rare Expressions, or What Some Leading Scholars of the Arabic Language Have Uniquely Recorded”. Kitāb al-Shawārid aw mā tafarrada bihi ba‘ḍ a‘immat al-lugha. – Cairo: The General Authority for Amiri Printing Affairs. – P 45 (in Arabic)
6. Al-Şaghānī, Rađī al-Dīn al-Ḥasan ibn Muḥammad (1960). Edited by Ibrāhīm al-Sāmarrā‘ī. “The Book of the Yaf‘ūl Pattern”. Kitāb Yaf‘ūl. – Basra: The Modern Printing Press. Reprinted from Journal of the College of Arts, University of Basra, no. 5. – P 45 (in Arabic)